

**YURTIMIZDA OTA-ONASIZ QOLGAN BOLALARINI TUTINGAN
OILALARGA MOSLASHTIRISHDA OLIB BORILAYOTGAN
AMALIY FAOLIYATLAR**

*Namangan Davlat Universiteti
13.00.01 Pedagogika tarixi va ta'limoti 2 kurs doktaranti
Raximova Dildora Qodirjonovna*

Annotatsiya: Hozirgi kunda amalga oshiriladigan isloxoxtlar orqali Oilaviy bolalar uylarining mehribonlik uylaridan farqi shundaki, bu yerda bolalarni ota-onalar o‘z xonardonlarida milliy qadriyatlarimiz negizi asosida tarbiyalaydi, mazkur oilalarga davlat tomonidan to‘liq moliyaviy ta’midot amalga oshiriladi. Shuningdek, Oilaviy bolalar uylariga tarbiyaga olingan bolalar mahalla hayotiga yaqindan jalb etiladi, undagi turli marosimlarda bevosita ishtirok etib, oilasidagi va mahallasidagi yoshi ulug‘ otaxon-onaxonlarning pand-nasixatlari va o‘gitlaridan bahramand bo‘lib, bolalar u yerda ahloqiy, ma’naviy va jamoaviy tarbiya ko‘radi.

Kalit so’zlar: Talim tizimi, jamiyat poydevori, mehribonlik uyi, bolalar, muassasa tarbiyachilari, jismoniy sog’lom yetuk shaxs, jamoat xavfsizligi, pand nasixatlar, dunyoqarash.

Аннотация: Отличие Семейных детских домов от детских домов в связи с нынешними реформами заключается в том, что здесь дети воспитываются родителями в своих домах на основе наших национальных ценностей, и эти семьи полностью материально поддерживаются государством. Также дети, воспитывающиеся в семейных детских домах, активно участвуют в жизни района, непосредственно участвуя в различных обрядах, пользуясь советами и поучениями пожилых родителей в семье и районе, дети развиваются там нравственно-духовно и коллективно. образование.

Ключевые слова: система образования, фундамент общества, детский дом, дети, воспитатели учреждения, физически здоровый взрослый человек, общественная безопасность, воспитательный совет, мировоззрение.

Abstract: The difference between Family Children's Homes and orphanages due to the current reforms is that here children are brought up by parents in their homes based on our national values, and these families are fully financially supported by the state. Also, children brought up in family orphanages are closely involved in the life of the neighborhood, directly participating in various ceremonies, enjoying the advice and teachings of the elderly parents in the family and neighborhood, and the children develop moral and spiritual there. and collective education.

Key words: Education system, foundation of society, orphanage, children, educators of the institution, physically healthy mature person, public safety, educational advice, worldview.

Har bir inson har kuni qiladigan ishini xuddi birinchi marta qilayotgandek qilishi kerak. Shundagina ishda rivojlanish bo‘ladi.

Biz ta’lim soxsidagi izlanishlarni olib borar ekanmiz doimo izlanishda yangiliklarni dunyo miqyosida bo’layotgan o’zgarishlarni to’g’ri va ma’lum izchilikda ta’lim tizimimizga tadbiq eta olish malakasiga ham ega bo’lishimiz lozim. Rivojlangan jamiyatning poydevori uchun o’sib kelayotgan yosh avlod, o’z ustida tinimsiz ishlaydigan va doimo vatan ravnaqi yurt tinchligi uchun harakatda bo’ladigan yosh avlod zarur. Hozirgi kunda, barchamizning e’tiborimiz yetim bolalar va ota-onalarning qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni tarbiyalashning tubdan yangilangan tizimini joriy etish chora-tadbirlarini amalga oshirishga qaratilmoxda. Mazkur borada, Muhtaram Prezidentimiz Qarorlariga asosan respublikamizdagi “Mehribonlik” uylari, Bolalar shaharchalari, oilaviy bolalar uylari va Bolalar uylari Milliy gvardiyaga soxa vakillariga biriktirildi. Milliy gvardiya “SOS – O‘zbekiston bolalar mahallalari” uyushmasining bolalar mahallalari bilan hamkorlik aloqalari o‘rnatildi

Shulardan kelib chiqib, Milliy gvardiyaga bir qator qo‘srimcha vazifalar yuklandi: Xususan:

- muassasa tarbiyalanuvchilarini ota-onasi yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarga qaytarish, vasiy yoki homiy tayinlash, farzandlikka berish va joylashtirishning boshqa shakllarini qo’llash choralarini ko‘rish;
- yetim bolalar va ota-onalarning qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni moddiy, huquqiy va psixologik-pedagogik qo’llab-quvvatlash;
- muassasalarda sifatli ta’lim va tarbiya jarayonini yo‘lga qo‘yishga, ularning maishiy shart-sharoitlari yaxshilanishiga, tarbiyalanuvchilarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish hamda ularning intellektual, jismoniy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga ko‘maklashish;
- yetim bolalar va ota-onalarning qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar uchun ma’naviy-ma’rifiy va madaniy tadbirlarni tashkil etish;
- zamonaviy usul va shakllardan foydalangan holda jismonan sog‘lom, ma’naviy yetuk va dunyoqarashi keng yoshlarni shakllantirish, yetim bolalar va ota-onalarning qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni sport turlariga qiziqtirish va to‘garaklarga jalb etish ular bilan mazmunli kun tartibini tashkil etish uchun amaliy chora tadbirlar ishlab chiqish.

2021 yil oktyabr oyidan boshlab (Farmonga ko‘ra, o‘quv mashg‘ulotlari 2022 yil

yanvar oyidan boshlanishi rejalshtirilgan edi, lekin gap bolalar farovonligi haqida ketayotgani uchun bu kurslar muddatidan oldin boshlangan), shu kungacha mazkur kafedra professor-o‘qituvchilari tomonidan o‘quv kurslari va shuningdek, 301 nafar Mehribonlik , Oilaviy hamda Bolalar uylari , 29 nafar SOS bolalar mahallalari uyushmasi tarbiyachilari bilan o‘quv seminarlari o‘tkazildi. Shu bilan bir qatorda, Respublika bo‘yicha 57 nafar psixolog va 19 nafar farzand asrab oluvchilarga kurslarni tamomlaganliklari to‘g‘risida sertifikatlar topshirildi. Yuklatilgan vazifalarni samarali ijrosini ta‘minlash uchun Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari tarkibidan mehribonlik bolalar muassasasi direktorining birinchi o‘rinbosari lavozimlariga ofitserlar tayinlandi. Tayinlangan raxbar faoliyati davomida turli xil pedagogik qadryatlar va qarashlardan unumli va foydali tomonlarini qo’llay olishi zarur. Bundan tashqari “Mehribonlik uylari va bolalar shaharchalari rahbarlari uchun ota-onasiga qaroban qolgan bolalarni ijtimoiy himoya qilish va qo’llab-quvvatlash sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni bilish darajasi, menejerlik qobiliyati, dunyoqarashi va aqliy salohiyatini (IQ) tekshirish bo‘yicha hamda pedagog xodimlar uchun lavozim malaka tavsiflari, amaldagi bolalar huquqlarini muhofaza qilishga va umumiyy o‘rta ta’lim sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlar, yoshga oid umumiy, ijtimoiy, maxsus pedagogika, ijtimoiy va bolalar psixologiyasiga oid bilim ko’nikma va malakaga ega bo’lishlari kerak bu esa ularni bu soxadagi faoliyatida o’z natijalarini ko’rsatib o’tadi. Hozirgi kunda olib borilgan amaliy faoliyatlarni ko’radigan bo’lsak amalda, mehribonlik muassasa bolalari faoliyati tugatilgan hududlarda yetim bolalar va ota-onasiga qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarning hujjatlari tuman (shahar) hokimliklari Bolalarni himoya qilish shu’balari tomonidan rasmiylashtirilib, hokim qarorlari asosida bolalarni Oilaviy bolalar uylariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri joylashtirish tizimi yo‘lga qo‘yilgan va bolalarni dastlabki kunlarda va dastlabki psixologik inqiroz davrida nazorat amalga oshiradi. Bu esa ularni ijtimoiylashuviga tasir ko’rsatadi. Hozirgi kunda amalga oshiriladigan isloxoxtlar orqali Oilaviy bolalar uylarining mehribonlik uylaridan farqi shundaki, bu yerda bolalarni ota-onalar o’z xonadonlarida milliy qadriyatlarimiz negizi asosida tarbiyalaydi, mazkur oilalarga davlat tomonidan to‘liq moliyaviy ta’midot amalga oshiriladi. Shuningdek, Oilaviy bolalar uylariga tarbiyaga olingan bolalar mahalla hayotiga yaqindan jalb etiladi, undagi turli marosimlarda bevosita ishtirok etib, oilasidagi va mahallasidagi yoshi ulug‘ otaxon-onaxonlarning pand-nasixatlari va o‘gitlaridan bahramand bo‘lib, bolalar u yerda ahloqiy, ma’naviy va jamoaviy tarbiya ko‘radi. Mehribonlik bolalar muassasalarida tarbiyalanayotgan o‘g‘il-qizlarga qaratilayotgan e’tibor, mamlaktimizda amalga oshirilayotgan Yoshlar siyosatining mantiqiy davomi.

Qonunchilikka asosan nafaqat mehribonlik bolalar muassasalari va oilaviy bolalar uylari tarbiyalanuvchilariga imtiyozlar belgilangan, shu bilan bir qatorda farzandlikka, vasiylikka, xomiylikka, oila tarbiyasiga (patronatga) olingan bolalar uchun ham

imtiyozlar belgilangan bo‘lib, ularning ijrosi nazoratga olingan. Jumladan, uy-joy berish va kvota asosida oliv ta’lim muassasalariga imtiyozli ravishda o‘qishga kirishlari uchun davlatimiz tomonidan keng imkoniyatlar yaratilgan. Bolalarga belgilangan imtiyozlardan foydalanishlari natijasida 2022 yilning 20 yanvar holatiga 675 nafar mehribonlik bolalar muassasalarining bitiruvchilariga hamda vasiylikka, homiylikka, oila tarbiyasi (patronat)ga olingan voyaga yetgan bolalarga turar-joylar berildi, 267 nafari 2021/2022 o‘quv yilida oliv ta’lim muassasalariga imtiyozli ravishda o‘qishga qabul qilindi.

Mehribonlik bolalar muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirishga mas’ul, Milliy gvardiya qo‘mondonining yoshlar bilan ishlash masalalari bo‘yicha o‘rnbosari lavozimi va “Mehribonlik” bolalar muassasalari bilan ishlash boshqarmasi tashkil etildi. Mehribonlik birlalar muassasalari faoliyatini tizimli tashkil etish, kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish, ularni metodologik ta’minlash, xalqaro tajribani o‘rganish, yetim va ota-onas qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar bilan ishlashning ilmiy asoslarini ishlab chiqish yuzasidan Jamoat xavfsizligi universitetida “Harbiy-vatanparvarlik, ma’naviy-ma’rifiy tarbiya va yoshlar bilan ijtimoiy ishslash kafedrasи” tashkil etildi.

Xulosa qilib Bugungi kunda amalga oshirilayotgan amaliy faoliyatlar ham bolalarni tarbiyasiga ularni milliy ruhda tarbiyalashga, ulrdagi xayotga bo‘lgan ishonch ertangi kunga umid uyg’otish maqsadida ular bilan turli tdbirlar va yurtimizning tarixiy shaxarlariga sayoxatlar uyushtirilmoqda.



Bunga misol qilib, Qadim va navqiron Buxoro o‘zining takrorlanmas qadriyatlari, mehmondo’sligi bilan boshqa hududlardan ajralib turadi. Bu navqiron tarixiy shaharni ko‘rish uchun butun dunyodan millionlab mehmonlar yurtimizga tashrif buyurishadi. Muhtaram yurtbosimiz Sh.Mirziyoyevning Ichki turizmni yanada rivojlantirish to‘g‘risida bir qancha qonunlari va bu borada berilayotgan imtiyozlar O‘zbekiston ahlining sayohat madaniyatini yanada shakllantirmoqda Shu

maqsadda, saxovatpesha homiylar ko‘magida 30-sonli Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari uchun ko‘hna shahar bo‘ylab sayohat tashkil etilib, tarixiy obidalar ziyorati uchun imkoniyat yaratildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мехрибонлик уйи тарбияланувчиларни ижтимоий хаётга тайерлашнинг педагогие тизими Монография Фвн 2010 й
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 27 июндаги “Ўзбекистон Республикасида оила институтини мустаҳкамлаш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПҚ-3808-сон Қарори
3. Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг Резолюция 217 А (III) билан 1948 йил 10 декабрда қабул ва эълон қилингандан
4. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Ўзбекистон, 2014. – 76 б.
5. “Ёш оиласарни моддий ва маънавий қўллаб-қувватлашга доир қўшимча чора-тадбирлар” тўғрисидаги Ўзбекистон Республикаси Президенти Фармони ПФ-3878 19 май 2007 й.
6. Kamolova, A., & Ergasheva, G. S. Q. (2022). Yosh avlodni tarbiyalashda xalq pedagogikasini manbalarining o’rganishning o’rganishning ilmiy-nazariy asoslari. *Science and Education*, 3(12), 590-592.
7. Kamolova, A. O. Q., & Husaynova, S. I. (2023). O’smirlar o’rtasida axloqsizlikni oldini olishda pedagogik faoliyatning o’ziga xos xususiyatlari. *Science and Education*, 4(2), 969-972.
8. Bolalarni oilaga qabul qilish va uning ijtimoiylashuvini amalga oshirish bo‘yicha yo’l-yo’riqlar. Uslubiy qo’llanma.-T.: Respublika Bollar ijtimoiylashuv markazi ,2008.-113 b